



CLINICAL AND PATHOGENESIS OF ATHEROSCLEROSIS

Mirzaeva Madinabonu Rustam qizi¹

¹ Samarkand State Medical Institute

He is a Level 2 medical student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5059825>

ARTICLE INFO

Received: 20th June 2021

Accepted: 25th June 2021

Online: 30th June 2021

KEY WORDS

Disease, arterial,
connective tissue, lipids,
metabolism, blood
vessels.

ABSTRACT

This article discusses the causes of chronic atherosclerosis in the human body as a result of malnutrition, the impact of organic and inorganic substances on the development of atherosclerosis.

ATEROSKLEROZ KASALLIGINING KLINIKASI VA PATOGENEZI

Mirzaeva Madinabonu Rustam qizi¹

¹ Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti

Davolash ishi bo'limi 2-bosqich talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-iyun 2021

Ma'qullandi: 25-iyun 2021

Chop etildi: 30-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

*Kasallik, arteial, biriktiruvchi
i to'qima, lipidlar, moddalar
almashuvi, tomirlar.*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inson organizimida noto'g'ri ovqatlanish natijasida kelib chiqadigan surunkali Ateroskleroz kasalligining sabablari, organik va noorganik moddalarning ateroskleroz kasalligining kelib chiqishiga ta'siri xususida so'z boradi.

Ateroskleroz surunkali kasallik bulib, unga arterial devorlarga lipidlar infiltratsiyasi va biriktiruvchi to'qima o'sishi natijasida tomir teshiglari torayib ichki a'zolar va qon aylanish buzilishidan kelib chiqadi. Xolesterin plakalari va yog'leri tomirlarga tasir qilib tomirlarning devorlari zichroq bo'lib, elastiklikni yo'qotadi. Ko'pincha notog'ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va boshqa omillar tufayli kasallik 30 yoshdan oshgan

odamlarga paydo buladi. Ateroskleroz insonlarda uzoq vaqt davom etib asta sekinlik bilan boshlanadi.

Agar bemor yuragida tush suyagining ortida og'riq sezsa, bosh aylansa bu kasallik o'zida borligini bilish mumkin.

Ateroskleroz va u bilan bog'liq bulgan ichki a'zolarining xastaliklariga yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti, bosh miyada ,



oyoqlarda va qorin bushlig'i a'zolarida qon aylanishning buzilishi kiradi.

☒ Tanadagi eng katta tomirning shikastlanishi tufayli yurak va boshqa organlarga ta'sir qiladi. Aortadan ko'p miqdorda qon o'tadi. Agar devorlar toraytirilsa, o'tkazuvchanlik pasayadi, bu bosimni oshiradi natijada surunkali shaklga o'tadigan yangi kasalliklar paydo bo'ladi. Odam kasalligi tufayli ozishni boshlaydi, ovqat yutishi qiyinlashadi, ovozi o'zgaradi.

☒ ARTEROSKLEROZ- yirik va o'rta arteriyalarning aorta, yurak, miya, qo'l va oyoqlar tomirlarining surunkali kasalligi bo'lib yosh o'tgan sari tomirlar ichki devorida patologik o'zgarishlar natijasida, yog' moddalar toshma ko'rinishida to'planib borib bu arteriosklerotik toshmalar biriktiruvchi to'qimaning o'sishi va kalsiy tuzlarining to'planishi hisobiga arteriya tomirlarining teshiklari asta sekin torayishiga, dag'alashuviga olib keladi va butunlay yopilib qolishi ham mumkin. Bunung natijasida kasallangan arteriya orqali qon bilan ta'minlanuvchi a'zolarining ish faoliyatining ishdan chiqaradi. Qon tomirining ichki devorlari torayishi bilan ma'lum vaqt ichida o'tadigan qon hajmi kamayadi va bu tomir orqali qon bilan ta'minlanadigan a'zo normadan kamroq oziq moddalar, normadan kamroq kislorod bilan taminlanadi. Natijada a'zo o'z vazifasini to'liq bajarolmaydi, oziq moddalar bilan tuyinmaganlik sababli asta-sekin to'qimalar o'ladi va yemirilib boradi.

Aterosklerozning patogenezi aterogenez deyiladi. Aterosklerotik lezyonlarning rivojlanishida lipoproteinlar va undan leykositlarning kirib kelishida va chiqishida, hujayralarning ko'payishi va

nobud bo'lishida, hujayralarlararo moddaning shakllanishi va qayta joylashishida va qon tomirlarining ko'payishi va ohaklanish jarayonlari bulib bu jarayonlar ko'p signallarga asoslarga, ko'pincha ko'p yo'nalishli bo'ladi. Ateroskleroz kasalligining rivojlanishida lipid moddalar almashinuvi asosiy o'rinda turadi, lipidlar oqsillar bilan birikib qon plazmasida lipoproteidlarni xosil qiladi. Kasallikni potogenizida yurakning xar sistolasida arteial tomirlar kengayib, diastolasida torayadi, sekin asta intima qavat bushashadi g'adur budur bulib qoladi. Natijada tomirlarning intima pardasi qondagi yog', tuz moddalar to'planib, qon aylanishini buzilishiga yani ishemiyaga olib keladi. Bu holatlar ateroskleroz kasalligining boshlang'ich davrida arteriya devorlarida lipidlar to'planishi bilan boradi. Ateroskleroz patagenizida muxim uringa ega almashunuv faktor bular giperxolesterinemiya, past zichlikdagi plazmali lipoproteidlarning ko'pligi kiiiradi. Ateroskleroz miya yarim arteriyalari vaqtinchalik miya yarim ishemiyasini yoki insultni keltirib chiqaradi. Mezenterik arteriyalarning aterosklerozi ishemiya va ichak infarkti mezenterik trombozga olib keladi.

Aterosklerozning klinik ko'rinishi qaysi arter ta'sirlanganiga qarab o'zgaradi. Ammo har holda, u gipoksiya belgilari-to'qimalar va organlarning ochligini o'z ichiga oladi. Aortada, yurak toj tomirlarida, bosh miya arteriyalari, buyrak arteriyalari, ichak tutkich arteriyalari, qo'l va oyoq arteriyalarida ateroskleroz kasalliklari vujudga keladi Spazm natijasida, bazan toj arteriyasi tarmoqlarining aterosklerotik jarayon bilan o'zgarishi va miokardning qisqa muddatli ishemiyasi tufayli vujudga keladi. Bu o'zgarishlar klinik jihatdan



ko'krak qisishi(angina pectoris), stenokardiya(stenocardia), yurak astmasi(asthmacardiate) belgilari bilan vujudga keladi. Bunday hollarda miokarda qon aylanishining buzilishi, qorinchalarning tebranishi(miokardning turlicha tartibsiz qisqarishi tufayli yurakning falajlanishi o'limga sabab bo'ladi. Bosh miya arteriyalari aterosklerozida tromboz natijasida qon aylanishi to'satdan buziladi, natijada miyada ishemiya, kulrang moddaning yumshashi ko'rinishidagi nekrozli o'choqlar hosil bo'ladi. Ateroskleroz natijasida miyaga qon quyilishi kam uchraydi. Ichaktutqich arteriyalari aterosklerozi ancha xafliroq, bunda bemor qornida og'riq sezadi, bu hodisa abdominal angina deyiladi. O'zgargan ichaktutqich arteriyasi tromb bilan berkilib qolib, ichak devori nekrozga uchrab (ichak gangrenasi), keyinchalik Peritonitga aylanib ketadi. Toj tomirlarda qon aylanishining o'tkir buzilishida Buyrak arteriyalarinig aterosklerozi, ularning yirik tarmoqlarini va buyraklar arteriyalarining o'zini zararlaydi, bu arteriyalarning ichki

qavati o'sib ketib yo'lini toraytirib qo'yadi. Natijada bir-ikkita yoki ko'p aterosklerotik chandiqlar hosil bo'ladi, chandiqlar ko'p bo'lsa buyrak kichrayadi va juda bujmayib qoladi. Buyraklarning ateroskleritik atrofiyasi(aterosklerotik nefrosirroz) deb shu hodisaga aytiladi.

Qo'l va oyoq arteriyalari aterosklerozida oyoq arteriyalari ko'proq va kuchliroq o'zgaradi.

Aorta va elastik tipdagi yirik arteriyalar(uyqu, o'mrov osti, yonbosh arteriyalari) aterosklerozida aterosklerotik pilakchalar ko'pchib, tomir yo'lga bo'rtib chiqadi, tomirlarning ichki ko'rinishi g'adurbudur bo'lib o'sadi, ateromatoz yaralar hosil bo'ladi, shu joyda tromblar, tromboemboliyalar, anevrizmalar yuzaga keladi. Aterosklerozning og'rlashuvi o'tkir o'zgarishlarda kuzatiladi. O'lim tromboemboliya, anevrizmalarning yorilishi, qon ketishlar, infarkt, gangrenalarda sodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.O Haydarov, SH.X.Ermatov Ichki kasalliklar Toshkent-2005
2. K.Bahodirov. Ichki kasalliklar Toshkent -1993
3. K.Chartakov, M.A.Mamataliyeva umumiy patalogiya Toshkent 2013
4. Internet sahifalari va Avitsenna.uz sayti.